

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**LOLAYEVA GULNISO GELDIYOROVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK GAZETA MATNLARIDA METAFORANING  
LINGVOKOGNITIV VA LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Lolayeva Gulniso Geldiyorovna**

Ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida metaforaning lingvokognitiv va lingvostilistik xususiyatlari..... 3

**Лолаева Гулнисо Гелдиёровна**

Лингвокогнитивные и лингвостилистические особенности метафоры в английских и узбекских газетных текстах..... 25

**Lolayeva Gulniso Geldiyorovna**

Linguocognitive and linguostylistic features of metaphor in English and Uzbek newspaper texts ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 51

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**LOLAYEVA GULNISO GELDIYOROVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK GAZETA MATNLARIDA METAFORANING  
LINGVOKOGNITIV VA LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.1.PhD/Fil3165 bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Shermatov Akram Abduhakimovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Xayrullaev Xurshidjon Zaynievich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Tursunov Mirzo Maxmudovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "15" may soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: [info@samdchti.ru](mailto:info@samdchti.ru)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (63045-raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "27" aprel kunida tarqatildi.  
(2026-yil "27" aprel dagi 27 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda lingvistik sohada metaforani har tomonlama tadqiq qilishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu holatning asosiy sabablaridan biri, metafora faqatgina adabiy yoki badiiy matnlarda kelishi bilan emas, balki kundalik muloqot jarayonlarida, ommaviy axborot vositalarida, ilmiy uslubda ham ko‘p qo‘llanilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shu boisdan metafora tilning universal vositasi sifatida turli ma‘nolar qatlamini ochishga xizmat qiladi. Metafora real nutq jarayonida ma‘nolarni kengaytirish, fikrni ravshan ifodalash hamda obrazli tarzda yetkazish imkoniyatini bera oladi. Bu esa, o‘z navbatida faqatgina real tilga xos bo‘lgan xususiyatlar orqali bizga metaforik tilni qanday qo‘llashimiz, qanday anglashimiz mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, metafora matnda qanday o‘rin egallashi, qaysi holatlarda ta‘sirchanroq vazifa bajarishi va qay tarzda turli funksiyalarni voqelantirish mumkinligi haqida ham mufassal ma‘lumot berishi mumkin.

Dunyo tilshunosligida matbuot tilini o‘rganish, xususan, gazeta matnlarida metaforalarning lingvokognitiv va lingvostilistik xususiyatlarini tahlil qilish bugungi kunda tilshunoslikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunga sabab matbuot tili nafaqat voqelikni xolis aks ettirishga, balki uni muayyan badiiy vositalar orqali ta‘sirchan tarzda qayta ifodalashga ham xizmat qiladi. Aynan metafora ushbu jarayonda asosiy rollardan birini bajarishiga shubha yo‘q. Ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida o‘quvchining diqqat-e‘tiborini jalb qilish, turli axborotni yanada ta‘sirchan shaklda yetkazish, shuningdek, ijtimoiy voqelikni yangicha konseptual asosda anglash imkonini beradi. Shu sababli metafora faqatgina badiiy ifoda vositasi emas, balki kommunikativ pragmatik ahamiyat kasb etuvchi kuchli lingvistik mexanizm sifatida zaruriyatligi mazkur ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Respublikamizda xorijiy tillarga bo‘lgan e‘tibor tobora ortib bormoqda. Buni yurtimizdagi deyarli hamma sohalarda, xususan, ta‘lim sohasining barcha shakllarida ko‘rishimiz mumkin. Aynan, ushbu holat bo‘yicha Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini aytib o‘tish joiz: “Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarining ortib borayotgani yoshlarimizni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o‘rganishga undamoqda”<sup>1</sup>. Prezidentimizning ushbu fikrlaridan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, xorijiy tilni bilgan kishi o‘z sohasining drayveri bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil O‘zbekistonda matbuot tilini tahlil qilish va undagi lingvostilistik xususiyatlarini o‘rganish so‘nggi yillarda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, milliy matbuotda Sharq madaniyati va o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan poetik hamda obrazli tasvirlash usullarining ustunligi kuzatiladi. Bunday holatni an‘anaviy va zamonaviy ommaviy kommunikatsiya uslublarining o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida izohlash mumkin.

---

<sup>1</sup> 2022-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli, 2020-yil 11-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-4884-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 19-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mavzuning umumiy metodologik asosini tilshunoslikda o‘rganib kelinayotgan nazariy ta’limotlar o‘rin olgan. Jumladan, jahon tilshunosligida metaforaning tilshunoslikda tutgan muhim o‘rinlari xususida A.Koldiron, V.Evans, A.Goatli, Z.Koveses, G.Lakoff va boshqalar <sup>2</sup>, MDH davlatlari olimlaridan N.D.Arutyunova, S.S.Gusev, V.B.Kashkin, Z.D.Popova, G.N.Sklyarevskaya, O.N.Laguta va kabilar <sup>3</sup> ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar asosida til tizimida metaforaning roli, vazifalari, uning nazariy asoslari kabi muhim mavzular haqida ma’lumotlar belgilab berilgan. Shu bilan birgalikda metaforalarning matn mazmunini shakllantirishdagi vazifalari, diskurs tizimida metaforalarning o‘rni kabi holatlar asoslangan. Metaforaning

---

<sup>2</sup> Coldiron A. *Commonplaces and Metaphors // The Oxford History of Literary Translation in English.* – Oxford: Oxford University Press, V.2, 2011. – P. 109 - 117.; Evans V. *Cognitive Linguistics: An Introduction / V. Evans and M. C. Green.* – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 830 p.; Goatly A. *Washing the Brain: Metaphor and Hidden Ideology/A. Goatly.* – Amsterdam: John Benjamins, 2007. – 431 p.; Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction.* – New York: Oxford University Press, 2010. – 375 p.; Lakoff G. *Metaphors We Live By / G. Lakoff and M. Johnson.* – Chicago; London: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.

<sup>3</sup> Арутюнова Н.Д. *Метафора / Арутюнова Н.Д. Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. Ярцевой В.Н.* – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 296 - 297.; Гусев С.С. *Наука и метафора.* – Л.: Издательство ЛГУ, 1984. – 152 с.; Кашкин В.Б. *Метафора как средство активного познания // Язык, коммуникация и социальная среда.* – Вып. 4, 2006. – С. 94 - 102.; Попова З.Д. *Когнитивная лингвистика / З. Д. Попова, И. А. Стернин.* – М.: Восток - Запад, 2007. – 314 с.; Скляревская Г.Н. *Метафора в системе языка.* – Санкт-Петербург: Наука, 1993. – 159 с.; Лагута О.Н. *Метафорология: теоретические аспекты.* – Новосибирск: Новосиб. гос. ун-т, 2003. – 114 с.

diskurs jarayonida voqelanishi xususida L.Kameron, A.Deignan, T.A van Deyk, A.Musolff, A.Kienki, A.Kaal, G.Praggleyaz, Yu.Shen, N.Balaban, G.I.Stin kabi tilshunos olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan<sup>4</sup>.

Gazeta materiallari bilan bog'liq holatlarda metaforaning lingvistik, ekspressiv-stilistik, milliy-madaniy, lingvomadaniy jihatlari to'g'risida J.Heyvud, E.Semino, H.Skorsinska, T.A van Deyk, El Refaiy, D.Reaks kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy ishlari bizni oldimizda turgan mavzuning yechimini topishda muhim ta'sir ko'rsatishgan<sup>5</sup>.

O'zbek tilshunoslarining metafora va uning lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilish borasida olib borgan ilmiy ishlari xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilgan. Xususan, M.Mukarramov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev, A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova, M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, D.Xudoyberganova, E.Qilichev, G.K.Qobuljonova, Sh.T.Maxmaraimova, M.M.Jo'rayeva kabi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida metaforaning lingvostilistik va kognitiv xususiyatlarini o'rganib, uning tilshunoslikda tutgan o'rni, ijtimoiy va madaniy kontekstdagi ahamiyatini tahlil qilganlar<sup>6</sup>. Ular, ayniqsa, metaforalarning til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqligini o'rganish, ularning madaniyat va til tizimida qanday shakllanishini ko'rsatish orqali o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini aniq tushuntirib berishga harakat qilganlar.

---

<sup>4</sup> Cameron L., Deignan A. The emergence of metaphor in discourse // *Applied Linguistics* 27(4), 2006. – P. 671-690.; T.A. van Dijk Structures of news in the press // *Discourse and Communication*. – Berlin: de Gruyter, 1985. – P. 69-93.; Musolff A. Metaphor scenarios in public discourse // *Metaphor and Symbol* 21(1), 2006. – P. 23-38.; Cienki A. The application of conceptual metaphor theory to political discourse: Methodological questions and some possible solutions. – London: *Political Language and Metaphor: Interpreting and Changing the World*, 2008. – P. 241-256.; Kaal A.A. Metaphor in conversation: PhD-Thesis - Research and graduation internal. – Amsterdam: Vrije Universiteit, 2012. – 301 p.; Praggleyaz Group. MIP: A method for identifying metaphorically used words in discourse // *Metaphor and Symbol*, Vol.22 (1), 2007. – P. 1-39.; Shen Y., Balaban N. Metaphorical (in)coherence in discourse // *Discourse Processes*, 1999, 28(2). – P. 139-153.; Steen G.J. Can discourse properties of metaphor affect metaphor recognition? // *Journal of Pragmatics*, №36, 2004. – P. 1295-1313.

<sup>5</sup> Heywood J., Semino E. Metaphors for speaking and writing in the British press // *Language in the media: Representations, identities, ideologies*. – London: Continuum, 2007. – P. 76-91.; Skorczynska H. Metaphor in scientific business journals and business periodicals: an example of the scientific discourse popularization // *Iberica*, 2001. – P. 43-60.; T.A. van Dijk Media contents. The interdisciplinary study of news as discourse // *A handbook of qualitative methodologies for mass communication research*. -New York: Routledge, 1991. – P. 108-120.; Refaie E.El. Metaphors we discriminate by: naturalized themes in Austrian newspaper articles about asylum seekers // *Journal of Sociolinguistics*, 2011. – P. 352-371.; Reah D. *The Language of newspapers* (Second Edition ed.). London; NewYork: Routledge, 2002. – 316 p.

<sup>6</sup> Mukarramov M. O'zbek tilidagi metaforalar: Lingvistik tahlil va tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1987. – 215 b.; Qo'ng'urov R. Metafora va uning tilshunoslikda o'rni.– Toshkent: Fan, 1999. – 189 b.; Begmatov E. Metaforaning semantik va pragmatik xususiyatlari: O'zbek tilidan misollar. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 202 b.; Tojiev Y. Metaforaning kommunikativ funksiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 178 b.; Nurmonov A. Metaforaning tilshunoslikdagi roli: Lingvistik va madaniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 210 bet.; Sobirov A. O'zbek tilidagi metaforalarning lingvostilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2013. – 198 b.; Qosimova N. Metafora va uning lingvokognitiv asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 220 b.; Mirzayev M. O'zbek tilida metafora va uning kontekstual izohi. – Toshkent: Yangi O'zbekiston, 2017. – 190 b.; Usmonov S. Metaforaning til tizimidagi o'rni va ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2015. – 175 b.; Rasulov I. Metaforaning lingvistik va kognitiv xususiyatlari: O'zbek tilidagi tadqiqotlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 211 b.; Xudoyberganova D. O'zbek va ingliz tillarida metafora: Solishtirma tahlil. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 233 b.; Qilichev E. O'zbek tilida metafora va uning lingvostilistik funksiyalari. – Toshkent: Ilm, 2019. – 198 b.; Qobuljonova G.K. O'zbek tilshunosligida metafora: Yangi yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2020. – 215 b.; Maxmaraimova Sh.T. Metaforaning lingvokognitiv tahlili: O'zbek tilidagi misollar. Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 198 bet.; Jo'rayeva M.M. Zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida axborotning diskursiv taqdim etilishi(funksional-pragmatik aspekt): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 48 b.

Mazkur tadqiqot ishi metaforaning ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida lingvokognitiv va lingvostilistik jihatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etilganligi jihatidan bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida metaforalarning lingvokognitiv va lingvostilistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning madaniyatlararo muloqotdagi kommunikativ-pragmatik funksiyalarini ochib berishdan iboratdir.

**Tadqiqot vazifalari:**

metaforalarni lingvokognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularning konseptual tuzilishini ochib berish;

metaforalarning lingvostilistik funksiyalarini va uslubiy o‘ziga xosliklarini belgilash;

ingliz va o‘zbek matnlaridagi metaforalarning umumiy va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilish;

metaforalarning madaniyatlararo muloqotda kommunikativ ahamiyatini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida qo‘llangan misollar tarkibidagi metaforik jarayonlarni amalga oshiruvchi birliklar.

**Tadqiqot predmeti** ingliz va o‘zbek tillarida keltirilgan gazeta matnlaridagi metaforaga asoslangan mavjud lingvokognitiv va lingvostilistik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

**Tadqiqotning metodlari.** Tadqiqot ishini yanada salmoqli bo‘lishi uning mohiyatini ochib berishda qiyosiy-tavsifiy metod, kognitiv-semantik tahlil, diskurs tahlili, statistik metod, lingvistik tavsiflash metodlaridan unumli foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida qo‘llanilgan metaforalar, voqelikni konseptual qurish usullari, ularning metaforik modellar orqali amalga oshishi hamda gazeta diskursidagi axborot uzatish mexanizmlarining lingvokognitiv modellari tizimlashtirilgan;

ingliz va o‘zbek gazetalarida qo‘llanilgan metaforalarning stilistik imkoniyatlari, jumladan, emotsional ta’sirchanlik, ifodaviylik, ijtimoiy konnotatsiya tizimli o‘rganilib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy kabi janrlar bo‘yicha oydinlashtirilgan;

leksik-semantik guruhlar, frazeologik birliklar va boshqa til vositalari orqali metaforaning kognitiv asoslari hamda metaforali til birliklarining ingliz va o‘zbek tillarida ifodalanish mexanizmlari lingvokognitiv tahlil asosida dalillangan;

ingliz va o‘zbek gazetalarida qo‘llanilgan metaforalar orqali anglashilgan konseptual tafovutlarning madaniy interpretatsiya jarayonlariga ta’siri aniqlanib, ularning pragmatik funksiyalari ilmiy jihatdan asoslangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: Filologiya yo‘nalishidagi yuqori kurs talabalari hamda lingvistika mutaxassisligidagi

magistrantlar uchun “Matn lingvistikasi”, “Kognitiv lingvistika”, “Lingvokulturologiya” fanlarida maxsus kurslar yaratishda, matbuot tilini o‘qitishda va tarjima amaliyotida qo‘llanilishi mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi gazeta matnlarida metaforik birliklarning o‘zaro munosabati va ularning gazeta matni mazmun-mohiyatini har tomonlama informativlik va ta’sirchanlik xususiyatlari bilan yo‘g‘rilganlik jihatlari taqdim etilgan, shuningdek matnda badiiy-estetik qimmatini ta’minlovchi muhim lingvistik vositalar bo‘la olishi misollar bilan dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishida muammoning aniq muhokama markaziga qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflanishi konkret lingvistik metodlar orqali tahlil qilishga asoslanganligi, foydalanilgan nazariy manbalarning ishonchliligi hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, misollar autentik materiallardan yig‘ilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarning o‘zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida metaforaning lingvokognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning shakllanish mexanizmlari va funksional imkoniyatlarini aniqlash, metaforalarning jahon va milliy matbuot tilida tutgan o‘rnini belgilash kabi nazariy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot davomida olingan ilmiy xulosalar lingvokognitiv va lingvokulturologik tahlil asosida gazeta matnlaridagi metaforalarning struktur-semantik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish hamda ularning har ikkala til tizimidagi konseptual-kognitiv belgilari asosida taqqoslash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lingvistik metodlar asosida qiyosiy tahlil qilishda bakalavriat talabalariga “Matnning filologik tahlili”, “Badiiy matnning lingvostilistik tahlili”, “Lingvokulturologiya” magistrantlarga “Matn lingvistikasi”, “Kognitiv lingvistika”, “Matn tahlili” kabi fanlardan maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlarida hamda mazkur sohalar bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar yaratish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida metaforaning lingvokognitiv va lingvostilistik xususiyatlari” mavzusida olib borilgan tadqiqot asosida:

ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida qo‘llanilgan metaforalar, voqelikni konseptual qurish usullari, ularning metaforik modellar orqali amalga oshishi to‘g‘risidagi ilmiy xulosalaridan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209. “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 3-iyundagi 01/4-2276-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, gazeta diskursidagi axborot uzatish mexanizmlarining lingvokognitiv modellari tizimlashtirilgan;

ingliz va o‘zbek gazetalarida qo‘llanilgan metaforalarning stilistik imkoniyatlari, jumladan, emotsional ta’sirchanlik, ifodaviylik, ijtimoiy konnotatsiya tizimli o‘rganilib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy kabi janrlar bo‘yicha

olingan xulosalaridan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020-yil 6-oktyabrdagi 84-03-3726-sonli xatiga asosan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan AQSHning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan 2020-2022-yillarga mo'ljallangan SUZ80020GR0039-raqamli "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar instituti 2025-yil 11-iyundagi 1752/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, metaforalarning ikki tildagi umumiy hamda farqli jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinib, janrlar bo'yicha jihatlari oydinlashtirilgan;

leksik-semantik guruhlar, frazeologik birliklar va boshqa til vositalari orqali metaforaning kognitiv asoslari hamda metaforali til birliklarining ingliz va o'zbek tillarida ifodalanish mexanizmlari lingvokognitiv tahlil asosida erishilgan natijalaridan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda olib borilgan PF-201912258 "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" nomli amaliy loyihada foydalanilgan.(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 3-iyundagi 01/4-2277-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida ilmiy yangilik sifatida gazeta matnida metaforizatsiya jarayonining lingvokognitiv tahlili olib borilgan va metaforaning turlari hamda struktur-semantik xususiyatlari tadqiq qilingan;

ingliz va o'zbek gazetalarida qo'llanilgan metaforalar orqali anglashilgan konseptual tafovutlarning madaniy interpretatsiya jarayonlariga ta'siri aniqlanib, ularning pragmatik funksiyalari xususida olib borilgan nazariy-ilmiy qarashlardan 2025-yil iyun oyida efirga uzatilgan "**Assalom Samarqand**" tonggi dasturining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda manba sifatida qo'llanilgan. (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 9-iyuldagi 01-07/243-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqotda metaforalarning madaniyatlararo muloqotda namoyon bo'lishi hamda ularning kommunikativ kompetensiya shakllanishiga ta'siri metaforik tamoyillar asosida qiyosiy aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, shuningdek, kafedraning ilmiy seminarlarida muhokama qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot materiali tavsiflangan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib

berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprotatsiya, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gazeta matnining o‘ziga xos xususiyatlari va lingvistik nazariyasi”** deb nomlangan birinchi bobida matn maqomi va uning tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinishi hamda matnning strukturaviy, semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinib, uning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi roli, shuningdek, qabul qiluvchi auditoriya bilan bog‘liq omillarning ahamiyati ochib berilgan, publitsistik uslubning o‘ziga xos xususiyatlari va uning jamiyatda tutgan o‘rni, gazeta matnining lisoniy talqini va vazifalari, tilshunoslikda metaforaning roli va uning lingvistik mohiyati ochib berilgan. Ushbu tadqiqotda matn tushunchasi nafaqat tarkibiy va tematik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bayonotlar ketma-ketligi, balki aloqa jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida ma‘lum kommunikativ munosabatlarni o‘rnatadigan murakkab dinamik shakllanish sifatida ham tushuniladi. Tilshunos olimlar - M.Y.Baxtin, I.R.Galperin, T.A. van Deyk, A.I.Novikov singari tadqiqotchilar o‘z asarlarida matnning nutq faoliyati doirasida yuzaga keluvchi kommunikativ birlik sifatida o‘rganilishi, uning gap va so‘z birikmasidan tubdan farq qiluvchi, yuqori darajadagi semantik va pragmatik mustaqillikka ega ekanligini ta’kidlab o‘tishgan<sup>7</sup>. Gollandiyalik olim T. Van Deyk matn lingvistikasiga kognitiv yondashuvni joriy etib, matnning tushunilishi uchun uning global va lokal sathlari ajratilishini ta’kidlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, matn ichki struktura (grammatik va semantik bog‘liqlik) va tashqi kontekst (pragmatik omillar) asosida shakllanadi<sup>8</sup>. Matn lingvistikasi bo‘yicha olib borilgan ushbu tadqiqotlar matnning lingvistik, semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Publitsistik uslub ingliz tilshunosligida “publicistic style” yoki “journalistic discourse” nomlari bilan izohlanadi va u asosan ommaviy axborot vositalarida – gazeta, jurnal, nutq va onlayn platformalarda qo‘llaniladigan, ta’sirchan, informativ va bahslovchan xususiyatlarga ega bo‘lgan uslub sifatida baholanadi. Ingliz olimi D. Kristal ushbu uslubni “mass communication with a persuasive intent” (ishontiruvga qaratilgan ommaviy kommunikatsiya) deb ta’riflaydi va unda stilistik vositalar orqali o‘quvchi e’tiborini jalb qilish hamda muayyan g‘oyaga undash asosiy vazifa ekanligini ta’kidlaydi<sup>9</sup>. O‘zbek tilshunosligida publitsistik uslubga doir tadqiqotlar ichida olim T.Qurbonov publitsistik uslub janrlarini bir qancha turlarga ajratib ko‘rsatgan: xabar, reportaj, korrespondensiya, maqola, siyosiy maqola, siyosiy-iqtisodiy hamda ilmiy xarakterdagi maqolalar, ocherk, felyeton, pamflet, lavha, partiya va hukumatning qarorlari, axborot, turli sharhlar, taqriz, ijtimoiy-siyosiy esse, ochiq xat, xalqaro xabar, chaqiriq<sup>10</sup>. Gazeta tili

<sup>7</sup> Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – 424 с.; Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М.: Либроком, 2010. – 336 с.; Van Dijk T.A. Text and Context: Explorations in the Semantics and Pragmatics of Discourse. – London: Longman, 1977. – 255 p.; Новиков А.И. Теория и практика стилистического анализа. – М.: Просвещение, 1991. – 207 с.

<sup>8</sup> Van Dijk T. Macrostructures: An Interdisciplinary Study of Global Structures in Discourse, Interaction, and Cognition. – Hillsdale: Erlbaum, 1980. – 327 p.

<sup>9</sup> Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 489 p.

<sup>10</sup> Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – 22 с.

tilshunoslik nuqtayi nazardan murakkab hodisa sifatida qaraladi. Publitsistik matnda, “nutq yaratuvchisi - nutq manzili” antinomiyasi odatda ikkinchisining ustunligi asosida hal bo‘ladi. Bu holat nafaqat tilning ichki rivojlanishi, balki ijtimoiy omillar bilan ham belgilanadi<sup>11</sup>. Ommaviy axborot nutqi bajarilayotgan ijtimoiy vazifaning umumiyligi bilan birlashtirilgan keng matnlar tizimi shaklida mavjud. Ommaviy axborot nutqining variantini matn xususiyatlari ijtimoiy maqsadni belgilashning konkretlashuvi natijasida uning navlarida tegishli refraksiyani oladi. Ommaviy axborot nutqining eng mustahkamlangan xilma-xilligini, bizningcha, gazeta matni deb hisoblash kerak.

Gazeta matni uni boshqa turdagi matnlarga yaqinlashtiradigan bir qator xarakterli xususiyatlar bilan birga, faqat unga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, ma’lum matn kategoriyalari tizimini tashkil etuvchi ushbu umumiy tizimli va o‘ziga xos xususiyatlar gazeta matnining ommaviy axborot nutqi sohasiga tegishliligi bilan belgilanadi. Gazeta matnidagi barcha tarkibiy elementlar va ularning funksional aloqalari muloqot maqsadlariga, shuningdek, til jamoasining kognitiv va kommunikativ faoliyati jarayonida ishlab chiqilgan muayyan qoidalarga bo‘ysunadi. Gazeta matni orqali amalga oshiriladigan muloqotning maqsadi haqida gapirganda, ma’lumot berish jarayoni ma’lum bir mafkuraviy va dunyo qarash asosini tasdiqlashdan iborat murakkab nutq harakati ekanligini aniqlashtirish kerak. Shuning uchun ham ekstralingvistik voqelik obyektlarining obyektiv xossalari va aloqalari ma’lum bir mafkuraviy konsepsiya nuqtayi nazarida namoyon bo‘lib, muayyan mafkuraviy guruh tarafdorlarining miqdoriy o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan gazeta matni odamlarning noverbal faoliyatini muvofiqlashtirish uchun kuchli mafkuraviy vositadir.

Ko‘chma ma’no biror so‘z leksik ma’nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo‘lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali yuzaga keladi. Ya’ni so‘z leksik ma’nosi ikkinchi bir leksik ma’noni hosil qiladi. Shu sababli keyingi leksik ma’no metafora deb ataladi. N.D.Arutyunovanning ta’kidlashicha, metafora mavhum belgi hamda sifatlarni parchalamaydi, aksincha, predmet borlig‘ining fikriy timsoli darajasiga ko‘tariladi<sup>12</sup>. M.Blek metafora xususida shunday yozadi: “Metafora qiyoslashdan boshqa hech narsa emas, bunda tafakkur tamoyil asosida mavhum tushunchani aniq moddiy tushunchaga yaqinlashtiradi va bitta so‘zga bog‘laydi”<sup>13</sup>. J.Lakoff va M.Jonson o‘zlarining metafora nazariyasini ilgari surar ekanlar, “Metafora bizning kundalik turmushimizga singib ketgan, nafaqat til, shuningdek, tafakkurimiz va harakatlarimizga qorishib ketgan. Bizning tushunchalar tizimimiz esa metaforik xarakterdadir” deb ta’kidlaydi. Ularning nazariyasiga ko‘ra, odamlar o‘z ongidagi “mavhum” konseptni aniqroq ifodalash,

<sup>11</sup> Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа термина и терминологическая номинация: Дис... д-ра филол. наук. – М.: Изд-во МГУ им. Ломоносова, 2005. – 21 с.

<sup>12</sup> Арутюнова Н.Д. Метафора. Языкознание. Большой энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. – С. 296-297.

<sup>13</sup> Блэк М. Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – 512 с; Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Изд-во иностр.лит., 1961. – 394 с. Гак В. Г. Метафора: универсальное и специфическое // Метафора в языке и тексте. – М.: Наука, 1988. – С 11-26.

mavjud yoki mavjud emas deb bilish uchun metafora qidiradi<sup>14</sup>. O‘zbek tilshunosligida tasviriy voqelikni turlarga ajratish ham deyarli rus tilshunosligidagi turlarga ajratishga mos keladi. O‘zbek tilshunosligida metaforalar nutqqa hissiyot va tasavvur beradigan narsalar va voqea-hodisalarga asoslangan majoziy ma’noda ishlatilgan so‘z va so‘z brikmalari turlaridan iborat. M.Yuldashev, M.Mirtojiyeva, E.Kilichov ilmiy asarlarida ushbu masaladagi ilk ma’lumotlar topiladi<sup>15</sup>.

Dissertatsiyaning **“Gazeta matnlarida metafora qo‘llanilishining lingvokognitiv jihatlari va semantik vazifalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida gazeta matnlarida stilistik va ekspressiv vositalarining ishlatilishi va ularning ahamiyati, metaforaning gazeta matnidagi lingvostilistik vazifalari hamda metaforizatsiya jarayonining kognitiv tahlili yoritilgan.

Stilistik vositalar gazeta matnlarining semantik, pragmatik va emotsional qatlamlarini chuqurlashtirishda, muallif nuqtai nazarini yoritishda, o‘quvchi bilan bevosita muloqot shaklida aloqa o‘rnatishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari auditoriyasining keng va har xil ijtimoiy qatlamga mansubligini inobatga olsak, matndagi ekspressivlik va stilistik xususiyatlar auditoriya bilan emotsional bog‘liqlikni ta’minlovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vositalarning xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikda diskursiv, stilistik va pragmatik yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. G.Lich stilistik vositalarning kommunikativ vazifasiga urg‘u berib, ularni “pragmatic stylistic devices” deb ataydi<sup>16</sup>. Bu fikrga ko‘ra, gazeta matnlarida stilistik vositalar nafaqat bezak, balki o‘quvchini ijtimoiy-ideologik pozitsiyaga jalb qilishga xizmat qiladi. N. Feyrklaf esa gazeta diskursini tanqidiy diskurs tahlili asosida o‘rganib, ekspressiv vositalar orqali ijtimoiy haqiqatlar qanday konstruksiya qilinishini izohlaydi. Bu nuqtai nazarga ko‘ra, ekspressiv vositalar – bu faqatgina estetik birlik emas, balki ma’naviy-madaniy va siyosiy ma’no tashuvchi qurol hamdir<sup>17</sup>. S.B.Beketovanning so‘zlariga ko‘ra, gazeta diskursi “aniq maqsadga erishishda - o‘quvchiga ma’lumotni eng qulay shaklda yetkazishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan lingvistik elementlar tizimidir”<sup>18</sup>. Gazeta matnlarida stilistik va ekspressiv vositalarning tahlili jurnalistikaning lingvistik va kommunikativ xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu vositalarning to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llanilishi zamonaviy OAV tilining estetik, pragmatik hamda axborot uzatishdagi kuchini belgilovchi muhim omil bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy gazeta matnlarining asosiy stilistik xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1) tasviriylik, ifodalilik, masalaning dolzarbligi, taqdimotning aniqligi va ravshanligi;

2) yangi til vositalarini izlash;

<sup>14</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live by*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 128 c.

<sup>15</sup> Yuldashev M. *Stilistika va matn tahlili*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 256 b.; Mirtojiyeva M. *Matn lingvistikasi: muammolari va tahlil usullari*. – Toshkent: Fan, 2011. – 212 b.; Kilichov E. *Til va madaniyat: lingvokulturologik yondashuvlar*. – Toshkent: Innovatsiya, 2018. – 180 b.

<sup>16</sup> Leech G.N. *Language in Literature: Style and Foregrounding*. – Harlow: Pearson Education, 2008. – 245 p.

<sup>17</sup> Fairclough N. *Language and Power*. – London: Longman, 2001. – 283 p.

<sup>18</sup> Бекетова С.В. Специфика газетного дискурса // Университетские чтения. – Пятигорск: ПГЛУ, 2010. – С. 97- 100.

- 3) muallif pozitsiyasini ochiq ifodalash;
- 4) oʻrnatilgan nutq shakllaridan keng foydalanish;
- 5) maʼlum bir davrga, mafkuraviy yoʻnalishga xos boʻlgan kalit soʻzlarning ulkan roli;
- 6) standart va ifoda birikmasi;
- 7) individuallik;
- 8) janr xilma-xilligi;
- 9) ham monolog, ham dialogik nutq, ogʻzaki va yozma nutq ishtirok etadi;
- 10) fikr, fakt, hujjatga eʼtibor qaratish;
- 11) ommaviy mashhurlik, mavjudlik<sup>19</sup>.

“*The New York Times*” va “*The Washington Post*” kundalik gazetolari, Amerikaning eng nufuzli gazetolari qatoriga kiradi. Ushbu nashrlarga havola qilingan nashrlar har doim ushbu ommaviy axborot vositalari ishonchli maʼlumot manbai ekanligiga ishonch hosil qiladi. “*The Washington Post*” gazetasidagi metafora vositalarini tahlilini quyidagicha koʻrinishga ega boʻladi:

“*The misuse of words reflects a fundamental problem*”<sup>20</sup> [Jeff Gates. 2023-yil 14-iyun]

Ushbu maqola sarlavhasida (1) “*misuse of words*” iborasi metafora boʻlib, soʻzlarning notoʻgʻri ishlatilishi jamiyatdagi chuqur muammolarni aks ettiradi. Bu ifoda orqali muallif tilning notoʻgʻri qoʻllanilishi jamiyatdagi muammolarni yoritishda qanday rol oʻynashini taʼkidlaydi.

“*The New York Times*”: “*How Hip-Hop Changed the English Language Forever*”<sup>21</sup> [Miles Marshall Lewis. 2023-yil 13-avgust]

Berilgan maqola sarlavhasida “*changed the English language forever*” iborasi metafora boʻlib, bu ifoda orqali muallif hip-hopning tilga boʻlgan chuqur taʼsirini taʼkidlaydi.

Ikkala gazetada uchraydigan ekpressiv vositalarning foiz koʻrsatkichi quyidagi jadvalda keltirilgan. (1- jadvalga qarang)

### 1-jadval.

#### “*The Washington Post*” va “*The New York Times*” gazetalarida uchraydigan stilistik vositalarining foiz koʻrsatkichi.

Ekspressiv vositalar	The Washington Post	The New York Times
1. Metafora	48.0%	48.3%
2. Epitet	10.4%	12.0%
3. Taqqoslash	7.8%	6.9%
4. Giperbola	5.2%	8.6%
5. Anafora	5.2%	5.0%
6. Kinoya	5.0%	12.0%
7. Antiteza	5.0%	6.9%

Gazeta matnlarida metaforaning lingvostilistik vazifalari quyidagilar:

Metafora matnning emotsional va ekpressiv taʼsirchanligini oshiradi: Masalan, gazeta maqolalarida “siyosiy maydon” yoki “ijtimoiy inqilob” kabi

<sup>19</sup> Denisova L. Pozniak A. Functional styles and publicistic style in English language. – Иркутск:Иглы, 2014. – 201 c. <https://www.scribd.com/document/549671337/Stylistic-features-of-the-headlines>

<sup>20</sup><https://www.washingtonpost.com/opinions/2023/06/14/misuse-words-ties-fundamental-problem/>

<sup>21</sup><https://www.washingtonpost.com/opinions/2023/06/14/misuse-words-ties-fundamental-problem/>

iboralar keng ishlatiladi. Bu iboralar, aslida, metafora yordamida o‘quvchiga kengroq, figurativ ma’no taqdim etadi va mavzuga yanada kuchliroq hissiy javobni keltirib chiqaradi.

Metafora gazeta matnlarida informatsiyani qisqacha va samarali tarzda yetkazish vositasi sifatida ishlaydi.

Metafora tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Metaforalar yordamida yangicha, innovatsion g‘oyalar va yangiliklar ommaviy axborot vositasida qiziqarli tarzda ifodalanadi. Gazeta matnida metaforalar ayniqsa ommaviy axborot vositalarining salohiyatini oshirish, olamshumul voqealarni tushuntirish va ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy hodisalarga ta’sir qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Metafora ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida turli ijtimoiy-siyosiy voqealarni obrazli ifodalash vositasi sifatida faol qo‘llaniladi. Ular:

- axborotni hissiy va obrazli tusda yetkazish,
  - o‘quvchining e’tiborini jalb qilish,
  - mavzuga baholovchan munosabat bildirishga yordam beradi.
- (qarang 2-3- jadval).

## 2-jadval

### Ingliz tili gazeta matnlaridagi metaforalar

Nº	Gazeta nomi va yili	Metaforik ifoda	Ma’nosi / tahlil
1	<i>The New York Times</i> , 2023 (№ 15012)	<i>The economy is <u>on life support</u>.</i>	Ushbu misolda “life support” birikmasi metafora vazifasida kelib “the economy” turdosh otiga nisbatan iqtisodiy holat nihoyatda og‘ir, sun’iy nafas olishda yotgan bemorga o‘xshatilmogda.
2	<i>The Guardian</i> , 2022 (№ 13078)	<i>The president launched a <u>war on poverty</u>.</i>	Ushbu misolda “war” so‘zi metafora vazifasida kelib “qashshoqlik”ka qarshi keskin choralar ko‘rish “urush” obrazida berilgan.
3	<i>The Washington Post</i> , 2021 (№ 13990)	<i>The scandal sent <u>shockwaves</u> through the nation.</i>	Ushbu misolda “scandal” so‘zi “shockwave” metaforasi sifatida tasvirlangan.
4	<i>Financial Times</i> , 2023	<i>Inflation is the <u>silent killer of savings</u>.</i>	Ushbu misolda “inflation” metafora vazifasida kelib jamg‘armalarning “the silent killer” ya’ni “jim o‘ldiruvchi” si sifatida talqin qilingan.

## 3-jadval

### O‘zbek tilidagi gazeta matnlaridagi metaforalar

Nº	Gazeta nomi va yili	Metaforik ifoda	Ma’nosi / tahlil
1	<i>Xalq so‘zi</i> , 2023 (№ 91)	<i>Yoshlar - jamiyatimizning <u>tayanchi va suyanchi</u>.</i>	Ushbu misolda yoshlar ijtimoiy barqarorlikning asosiy tayanchi va kuchi sifatida ifodalangan.
2	<i>Yangi O‘zbekiston</i> , 2024 (№ 67)	<i>Yangi O‘zbekiston sari <u>dadil qadamlar</u>.</i>	Ushbu misolda “qadam” metafora vazifasida kelib harakat va taraqqiyot ramzi sifatida ishlatilgan.
3	<i>O‘zbekiston ovozi</i> , 2023 (№ 55)	<i>Korrupsiya - jamiyat tanasidagi <u>saraton kasalligidir</u>.</i>	Ushbu misolda korrupsiya jamiyatga ich-ichidan zarar beruvchi illat “saraton” sifatida tasvirlangan.
4	<i>Hurriyat</i> , 2022 (№ 102)	<i>Sud islohoti - adolat yo‘lidagi <u>charxpalak</u> emas.</i>	Ushbu misolda sud tizimidagi islohotlar samarasiz aylanmalar ya’ni “charxpalak” emas, balki real o‘zgarish ekanligi ko‘rsatilgan.

O‘zbek tilidagi gazeta matnlarida metafora asosan quyidagi lingvostilistik vazifalarni bajaradi:

Emotsional ta’sir ko‘rsatish: *Vatan - bu qalbimizdagi olov*. [Yangi O‘zbekiston, 2023-yil, 8-avgust]

Kamchiliklarni va muammolarni aniqlash: *“Iqtisodiyot - bu qiyshiq ko‘prik, ustunlari zaif, har bir qadam ehtiyotkorlik bilan tashlanishi kerak.”* [Xalq so‘zi” gazetasi, 2024-yil 12-mart]

Konseptual ramkalarni yaratish: *“Siyosat sahnasida har bir harakat o‘yinchining strategiyasi hisoblanadi.”* [Pravda Vostoka, 2023]

Matnga estetik ko‘rinish berish: *“Tadbirkorlik - bu dengizda suzayotgan qayiq kabi, to‘lqinlar bilan kurashib oldinga intilishdir”.* [Xalq so‘zi, 2023-yil, 15-yanvar]

Ingliz tilidagi gazetalar misolida metaforalarning asosiy funksiyalari: Kognitiv va tushuntiruvchi vazifasi: *“The economy is on life support”* [The New York Times, 2023, № 15012]

Emotsional intensivlikni oshirish vazifasi: *“Spain’s apocalyptic floods”* - [The Guardian Weekly, November 8, 2024].

Ijtimoiy-siyosiy pozitsiyani ifodalash (ideologik tahlil) vazifasi: *“War on drugs is failing”* - [The Guardian, July, 2020]

Iqtisodiy va ijtimoiy mavzularni soddalashtirish vazifasi: *“Inflation is eating up people’s savings.”* [The New Nation, December 29, 2023]

Gazeta matnlarida ishlatiladigan metaforalar quyidagicha ko‘rinishga ega. (4-jadvalga qarang )

#### 4-jadval

Metafora turi	Vazifasi	Misol (gazetadan)
Harbiy metafora	Siyosiy vaziyatni qarama-qarshilik sifatida tasvirlaydi	“The campaign is a <u>battlefield</u> ” – The New York Times, 2022
Tibbiy metafora	Iqtisodiy muammolarni kasallikka qiyoslaydi	“The economy is in a <u>coma</u> ” – The Guardian, 2023
Tabiiy ofat metaforasi	Og‘ir holatni kuchli obraz orqali ko‘rsatadi	“A tsunami of layoffs hits the <u>tech sector</u> ” – CNN, 2023
Hayvonlar orqali metafora	Siyosiy shaxslar yoki kuchlarni personifikatsiyalash	“ <u>The hawks</u> in Congress <u>demand action</u> ” – The Washington Post, 2021
Texnik metafora	Murakkab siyosiy jarayonlarni texnologik obrazda ko‘rsatadi	“ <u>The deal is stuck in legislative machinery</u> ” – BBC, 2022

Gazeta matnlaridagi metaforalarning lingvostilistik vazifalarining qiyosiy tahlili quyidagicha namoyon bo‘ladi (4- jadvalga qarang).

Gazeta matnlarida metaforizatsiya jarayoni - bu nafaqat stilistik-bezatish vositasi, balki chuqur lingvokognitiv jarayon sifatida ham maydonga chiqadi. Bu jarayon orqali jurnalist voqelikni o‘quvchi ongiga tanish va tasavvurga yaqin obrazlar orqali yetkazishga intiladi. Metaforalar kognitiv modellashtirishda asosiy vositalardan biri sifatida harakat qiladi - ular murakkab siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy hodisalarni soddalashtirib, o‘quvchining bilimlar tizimida ularni aniqroq joylashtirish imkonini beradi.

## 5-jadval

Vazifa	O‘zbek tilida	Ingliz tilida	Izoh
Abstrakt tushunchalarni aniqlash	“Iqtisodiyotning gullab yashnashini ta’minlash”	“ <u>The economy is booming</u> ”	Ushbu misollarda <i>iqtisodiyotning</i> rivojlanishini tasvirlashda “gullab-yashnash” va “booming” metaforalari ishlatilgan.
Hissiy ta’sir	“Siyosatchilarning urushi”	“ <u>The political battle is heating up</u> ”	Ushbu misollarda <i>siyosiy vaziyatning</i> keskinligini va xavfliligini ko‘rsatishda “urush” va “battle” metaforalari ishlatilgan.
Diqqatni jalb qilish	“O‘zbek tili gullab yashnamoqda”	“ <u>The English language is flourishing</u> ”	Ushbu misollarda o‘quvchini <i>o‘zbek tili</i> yoki <i>ingliz tili</i> haqidagi maqolani o‘qishga undaydigan “gullab-yashnamoqda” va “flourishing” metaforalari ishlatilgan.
Muallifning fikrini ta’kidlash	“Siyosat - bu o‘yin”	“ <u>Politics is a game</u> ”	Ushbu misolda <i>siyosatning</i> aldamchi va o‘yinchoq ekanligini ko‘rsatishda “o‘yin” va “game” metaforalari ishlatilgan.
Tinglovchilar bilan aloqa o‘rnatish	“Hayot - bu sayohat”	“ <u>Life is a journey</u> ”	Ushbu misolda o‘quvchilarni <i>hayotning</i> qiyinchiliklarini va go‘zalliklarini tushunishga undaydigan “sayohat” va “journey” metaforalari ishlatilgan.

